

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

162919/1-sonli SHARTNOMA

Juma sh.

“ 25 ”Oktyabr 2022-yil

Bundan buyon Buyurtmachi deb ataluvchi “Samarqand viloyat Pastrodarg’om tumani “Obodonlashtirish boshqarmasi” nomidan nizom asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig’i **Djuraev.B** orqali va bundan buyon Bajaruvchi deb ataluvchi « **BINO VA YO’L LOYIHA** » MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi direktori **O.Xonkeldiyev** orqali O’zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ning topshirig’i bo’yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **20.10.202** dagi Pastrodarg’om tumani “Obodonlashtirish boshqarmasining № **162919-sonli yig’ilish bayoni asosida, Zormon MFY Yangikent ko’chasini joriy tamirlash asfalt yotqizish ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini** ishlab chiqishni o’z zimmasiga oladi.

1.2. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so’ng G’aznachilikda ro’yxatga olingan kundan boshlanadi.

2. Shartnoma bahosi va to’lov qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **10 520 000 (O’n million besh yuz yigirma ming) so’mni** tashkil qiladi.

2.2 Buyurtmachi shartnomani G’aznachilik ro’yxatidan o’tgan kundan boshlab 10 (o’n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 % miqdorida avans to’lovini amalga oshiradi

2.3. Ishlar qiymatini ko’paytirishga yyengib bo’lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo’lganda yoki ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o’zgartirilganda shartnoma bahosi o’zgartirilishi mumkin.

2.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko’rsatilgan ko’chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag’i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so’ng 15 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to’lashni o’z zimmasiga oladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko’rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko’paytirishga yyengib bo’lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo’lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o’zgartirilganda.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma’lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o’z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko’zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to’lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko’rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko’rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko’zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo’yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma’lumotlarni tarqatmaslikni o’z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan avans to’lovlari o’z vaqtida o’tqazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to’lovi va ma’lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

3.6. Mazkur shartnomaning 2.4-bandi bajarilmagan holda Bajaruvchi buxgalteriya hisob-kitoblarini o'zaro solishtirish dalolatnomasi yoki bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida undirishga to'liq haqli.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan holda topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yyengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

6.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

7.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy

qiymatliklar olinishiga yo‘l qo‘yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va‘da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.

7.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o‘zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ushbu holat bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

7.5. Taraflar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydilar.

7.6. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarning 8.4- va 8.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi ma‘lum bo‘lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

8. Qo‘shimcha shartlar

8.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to‘la to‘lovni amalga oshiradi.

8.2. O‘zaro muloqot yo‘li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda hal qilinadi.

8.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

8.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko‘rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

8.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo‘yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va Bajaruvchining obyekt bo‘yicha bajargan ishlariga nisbatan qo‘llaniladi.

8.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o‘zaro muzokara yo‘li bilan hal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudida e‘tiroz tartibiga rioya qilgan holda, ko‘rib chiqiladi. E‘tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko‘rib chiqish muddati e‘tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 15 (o‘n besh) kun muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma bo‘yicha nizo kelib chiqqan hollarda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

8.7. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to‘lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to‘lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,04 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiy so‘mmasi shartnoma narxining 10 foizidan oshmasligi lozim.

8.8. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,04 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy so‘mmasi bajarilmagan ishlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

8.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

8.10. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

Loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladigan ko'chalar ro'yxati

8.11. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8.12. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

8.13 Ushbu shartnoma amal qilish muddati 25"10.2022-yildan 31-dekabr 2022-yilgacha

9.Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«BUYURTMACHI»

Nomi: Pastdargom tumani Obodonlashtirish boshqarmasi

Manzili: Pastdargom tumani

Shaxsiy x/r:401722860182277065200110018

STIR (INN): 206852932

XXTK (OKNX):

Tel/faks: +99891 187 46 01

Moliya Vazirligi Gaznachiligi

X/r: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi


Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni,1

STIR (INN): 201122919

MFO: 00014

XXTK(OKNX): 97160

Imzo:



Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.) _____

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: _____

Imzo qo'yilgan sana " ____ " _____ 2022-y.

«BAJARUVCHI»

Nomi: «BINO VA YO'L LOYIHA» MCHJ »

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiev ko'chasi 3-uy

Bank nomi: AT Aloqa bank Samarqand f-li

Xisob rakami: 2020 8000 1009 6345 1001

MFO: 00401

OKED: 71110

STIR (INN): 305956641

Direktor _____



Тасдиқлайман

Пастдаргом тумани Ободонлаштириш

Бошқармаси бошлиғи **Б.Джураев.**

“25” октябр 2022 йил



Танлов ўтказиш бўйича Пастдаргом тумани Ободонлаштириш бошқармаси қошидаги комиссиясининг йиғилиши

БАЁНИ № 5

25 октябр 2022 йил

Жума шаҳри

Йиғилишда тасдиқланган комиссиянинг қуйидаги аъзолари қатнашдилар:

Комиссия раиси Б.Файзуллаев - Ободонлаштириш бошқармаси инфратузилма бўлим бошлиғи

Комиссия аъзолари:

- | | |
|------------|---|
| А.Холманов | -Туман ободонлаштириш бошқармаси бўлим бошлиғи. |
| С.Уринов | - Туман ободонлаштириш бошқармаси техник назоратчиси. |
| А.Махмудов | -Туман ободонлаштириш бошқармаси бош хисобчиси. |
| К.Болтаев | -Туман ободонлаштириш бошқармаси ёрдамчи хисобчиси. |

Кун тартиби

Йиғилишда кайд этилдики 20,10,2022 йилда № 162919 сонли лот билан бошқарма томонидан Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ётқизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш 12 240 000 сум жойлаштирилган эълон бўйича Bino va Yo'l Loyiha MCHJ ва YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ, MAROQAND BUNYODKOR QURILISH MCHJ пудратчи ташкилотлари қатнашди.

Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ётқизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш Bino va Yo'l Loyiha MCHJ нинг имкониятлари устунлиги ва тендир савдолари тугаб ушбу лот бўйича қушимча талаблар 2(икки) кун муҳокамада турган вақтда ҳеч қандай талаблар чиқмаганлиги иноботга олиб махсус комиссия йиғилиши

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

- 1.Пастдаргом тумани Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ётқизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш Bino va Yo'l Loyiha MCHJ нинг имкониятлари устунлиги ва тендир савдолари тугаб ушбу лот бўйича қушимча талаблар 2(икки) кун муҳокамада турган вақтда ҳеч қандай талаблар чиқмаганлиги иноботга олиб Bino va Yo'l Loyiha MCHJ томонидан таклиф этилан 10 520 000.00 сумга шартнома тузиш мақуллисин.
- 2.Ишларни сифатли ва шартномада курсатилган муддатларда бажариш қафолати.
3. Bino va Yo'l Loyiha MCHJ ва Пастдаргом тумани Ободонлаштириш бошқармаси Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ётқизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ишлари бажариш тугрисида икки томонлама шартнома лойихаларини икки нусхада Ўзбекистон Республикасининг Хужалик юритувчи субектлар қолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тугрисида Конунига мувофиқ тузиш белгилансин.
4. Bino va Yo'l Loyiha MCHJ ва Пастдаргом тумани Ободонлаштириш бошқармаси Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ётқизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ишлари бажариш тугрисида икки томонлама шартнома лойихаларини икки нусхада имзолаб тузиш ва Пастдаргом тумани газначилик бўлини юридек мажбуриятлари руйхатга олиш ва нарх маниторинг гуруҳига такдим этилсин.

Маскур баённома ижросина бажарилишни уз зиммамда колдираман.

Йиғилиш баёни тўғри тузилган деб ҳисоблаб


Комиссия раиси

Б.Файзуллаев




Комиссия аъзоси


А.Холманов




С.Уринов



А.Махмудов



К.Болтаев



Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 162919 на приобретение Самарқанд вилояти Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ёткизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш

Способ проведения электронный

Дата 20.10.2022

Время рассмотрения 20.10.2022 21:21

Закупочная комиссия Пастдаргом туман Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	DJURAYEV BEKZOD SHAVXITDINOVICH	Рахбар	Ободонлаштириш Бошкармаси
Секретарь комиссии	DJURAYEV AKOBIR ZAYNIDDINOVICH	ишчи	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	FAYZULLAYEV BOBIR BOZORBOY UG'LI	Инфратузилма булим бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	O'RINOV SINDOR RAVSHANOVICH	булим бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	XOLMANOV AZAMAT MUROTOVICH	Булим бошлиги	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	SUYAROV JAMSHID UMAROVICH	Мухандис	Ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 20.10.2022 года № лота 162919.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Самарқанд вилояти Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ёткизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	12 240 000.00
Стартовая сумма	12 240 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий холати бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: сунги 1 йиллик айланма маблағлари туғрисида маълумот ва банкдан қолдиқ маблағлар туғрисида маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	20	20	20	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	20	20	18	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	20	1	15	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	20	20	5	Экспертная		

Критерий №2 Мутахассис ходимларваМавжуд техник асбоблартўгрисидамаълумоти

Тип: Текстовое значение

Описание: Мутахассисходимлар ва техник асбобукуналарнинг рўйхати ва реестри тасдиқланган ПДФ форматда

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	15	15	15	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	15	15	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	15	1	15	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	15	15	5	Экспертная		

Критерий №3 Ушбу сохада ишлаган иш тажрибаси бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ушбу соха бўйича талаб этиладиган лицензия, гувоҳнома, сунги 3 йилда шунга ухшаш объектларда бажарган ишлари реестри тасдиланган ПДФ форматда

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	15	15	15	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	15	15	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	15	1	15	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	15	15	5	Экспертная		

Критерий №4 Лойиҳа-сметахужжатларини ишлаб чиқиш муддати

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов хужжатларида лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш муддати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	15	15	15	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	15	15	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	15	1	15	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	15	15	15	Экспертная		

Критерий №5 Бюджет олдида қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Бюджет олдида қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома (тегишли давлат солиқ ташкилотлари томонидан ёки QR код билан тасдиқланган бўлиши лозим)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	10	10	10	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	10	10	10	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	10	1	10	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	10	10	10	Экспертная		

Критерий №6 Объектн жойида ўрганганлиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектн жойида ўрганганлиги тўғрисида маълумот, объектн нуқсонлар қайдномаси, объектнинг тахминий қиймати, объектнинг режаси, умумий кўриниши, материалларни олиш манбалари ва ташиш масофаси тўғрисида маълумотлар (Объект мавжуд ҳолати бўйича расм илова қилинади)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Bino va Yo'l Loyiha MCHJ	25	25	20	Экспертная		
YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	25	25	2	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	25	1	2	Экспертная		
SPECIAL LOYIHA MCHJ	25	25	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	12 240 000.00	11 628 000.00 UZS	11 628 000.00	00.00	11 628 000.00	19.10.2022 13:49:51	9.04713
YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	12 240 000.00	11 000 571.00 UZS	11 000 571.00	00.00	11 000 571.00	19.10.2022 13:33:38	9.56314
Bino va Yo`l Loyiha MCHJ	12 240 000.00	10 520 000.00 UZS	10 520 000.00	00.00	10 520 000.00	18.10.2022 10:30:23	10

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	64.8	9.04713	73.84713
YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ	67.5	9.56314	77.06314
SPECIAL LOYIHA MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
Bino va Yo`l Loyiha MCHJ	85.5	10	95.5

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 162919 от 20.10.2022 года на приобретение Самарқанд вилояти Пастдаргом тумани Зормон МФЙ Янгикент кучасини таъмирлаш асфалт ёткизиш ишлари учун лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш определила победителем:

Bino va Yo`l Loyiha MCHJ
305956641

и резервный исполнитель: YO`L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ (306714958)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	DJURAYEV BEKZOD SHAVXITDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	FAYZULLAYEV BOBIR BOZORBOY UG`LI	Согласен	
Член комиссии	O`RINOV SINDOR RAVSHANOVICH	Согласен	
Член комиссии	XOLMANOV AZAMAT MUROTOVICH	Согласен	
Член комиссии	SUYAROV JAMSHID UMAROVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

WB6624451577

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi tuzish to'g'risida.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: PASTDARG'OM TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 25.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Pastdarg‘om tuman
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



Z.E.ZIYADULLAYEV

26.10.2022



XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

140502, Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumani, Juma shahri Hamid Olimjon kўchasi, 15-uy, tel: (8-366) 2319823

2022 - yil 3 - oktabr

VI-72-167-7-101-K/22

Pastdarg‘om tuman hokimligi

Pastdarg‘om tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarorlarining ijrosi ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yetmish ikkinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining open budget.uz rasmiy veb sayti orqali mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida tumanda istiqomat qiluvchilar tomonidan 225 ta takliflar bildirilganligi ushbu takliflardan 190 tasi fuqarolar jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishchi komissiya tomonidan ovoz berish jarayoniga o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri A.Karimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pastdarg‘om tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan 9 277.5 (tuqqiz milliard ikki yuz yetmish yetti million besh yuz ming) so‘m ovoz berish natijalari bo‘yicha g‘olib deb topilgan 12 ta loyihalarni 1-ilovaga asosan moliyalashtirish uchun yunaltirilsin.

3. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va ushbu mablag‘larning boshqa maqsadlarga ishlatilishi ta‘qiqlansin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (A.Karimov)ga jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarga yo‘naltirilgan mablag‘ni to‘g‘ri va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Z.G‘aybullaev)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishini ta‘minlash topshirilsin.

5. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘arma”si mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘lar amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar uchun smeta xujjatlari tayyorlangandan so‘ng iqtisod qilingan mablag‘lar belgilangan tartibda jamg‘armaga qaytarilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Soniboyev), “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi (B.Shukurov) tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Karimov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarga yo‘natirilgan mablag‘larni ishlatilishi va bajarilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish topshirilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Aliyev va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Xudayberdiyev

Xalq deputatlari Pstdarg'om tuman
Kengashining
2022 yil 3 oktabrdagi
VI-72-167-7-101-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Pstdarg'om tuman "Fuqarolar tashabbusi jamg'arma"si mablag'lari hisobidan
2022 yil 2-bosqichda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni
moliyalashtirish bo'yicha**

MANZILLI RO'YXATI

№	G'olib takliflar ma'lumoti					Amalga oshirishning dastlabki qiymati (ming so'm)	Xaqiqatda ajratilgan (ming so'm)	Moliyalash-tirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan xujjatlar	Harid qilish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balansda saqlovchi	Qisqacha mazmuni	To'plan-gan ovozlari soni						
									x		x
1	0960600117	"Boldir" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	«Boldir» maxallasi Xuja kishloqga kirish yuli Muazzam kuchasi ta'mirlash (asfalt yotqizish)	3211	663 000	663 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	0960600111	"Navbaxor" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	"Navbaxor" maxallasi Kushatosh-1 yuli kuchasi ta'mirlash (asfalt yotqizish)	3170	959 000	959 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
3	0960600134	"Zormon" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	"Zormon" maxallasining asosiy yuli, Yangikent kuchasini ta'mirlash (asfalt yotqizish)	3086	612 000	612 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
4	0960600102	"Navbaxor" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	"Navbaxor" maxallasi M.Koshkariy (Chulkovar) kuchasini kirish qismini ta'mirlash (asfalt yotqizish)	3084	1020 000	1020 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
5	0960600057	"M.Ulug'bek" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi "M.Ulug'bek" maxallasida yangi kurilgan kup kavatli uy joylarni xovli kismiga bolalar maydonchasi kurish (bolalar uyingoxlari bilan)	2922	350 000	350 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
6	0960600087	"Katta Nayman" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi "Katta Nayman" maxallasidan o'tuvchi Markaziy kuchasini ta'mirlash (asfalt yotqizish)	2768	816 000	816 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
7	0960600107	"Navbaxor" MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi «Navbaxor» maxallasi (O'zbekim tuyxonasidan) 60 maktabga olib boruvchi yulga asfalt kilib berish. (1800 metr) masofa	2715	908 000	908 000	"Fuqarolar tashabbusi jamg'arsa"si	Pstdarg'om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjalari	Eng yaxshi takliflarni tanlash

8	0960600082	“Kichik Nayman” MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi “Kichik Nayman” maxallasidan utuvchi Markaziy kuchasini (1200 metr) ta’irlash asfalt yotqizish	2552	615 000	615 000	“Fuqarolar tashabbusi jamg’arsa”si	Pastdarg’om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
9	0960600135	“Mirzatup” MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	“Mirzatup” maxallasi T.Kodirov kuchasi xamda ushbu kucha bilan Nurafshon kuchalarini boglovchi yul bilan birgalikda ta’irlash (asfalt yotqizish).	2501	650 000	682 500	“Fuqarolar tashabbusi jamg’arsa”si	Pastdarg’om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
10	0960600125	“Temiryul” MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	“Temiryul” maxallasiga kirishdagi yul (Temiryul va Shark tongi kuchalari 81 maktabgacha bulgan 1,6 km yul) ta’irlash. (asfalt yotqizish)	2464	816 000	816 000	“Fuqarolar tashabbusi jamg’arsa”si	Pastdarg’om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
11	0960600112	“Yangiavlod” MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi Yangiavlod mahallasi (Usku qishlog’i) va Navbaxor maxallasini boglovchi yo’lni ta’irlash (1600 metr yulga asfalt yotqizish).	2448	816 000	816 000	“Fuqarolar tashabbusi jamg’arsa”si	Pastdarg’om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
12	0960600129	“Temiryul” MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi Temiryul mahallasi “Shark tongi”, “Ilg’or” ko’chalarini ta’irlash (2 km asfalt yotqizish)	2389	1020 000	1020 000	“Fuqarolar tashabbusi jamg’arsa”si	Pastdarg’om tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta xujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash



№ 6599-395d-1705-e533-7ed9-1149-7683
Хужжат яратилинган сана: 2019-06-29

Хужжат берилган: ООО "БИНО ВА YO'Л LOYIHA"
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 305956641

Архитектура-шаҳарсозлик хужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун ЛИЦЕНЗИЯ

ООО "БИНО ВА YO'Л LOYIHA" га объектларнинг мураккаблик тоифалари классификатори бўйича II тоифадаги объектлар учун қуйидаги:
Тўлиқ комплексда лойиҳалаш бўйича фаолият турлари. А гуруҳи - Транспорт ва йўл қурилиши объектлари ва комплексларини лойиҳалаштириш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш. Умумий фойдаланиладиган автомобиль йўллари қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш учун лойиҳа-смета хужжатларини яратиш. Архитектура-шаҳарсозлик хужжатларининг айрим бўлимларини ишлаб чиқиш бўйича фаолият турлари. Б гуруҳи - Қурилиш объектларини мукамал ва жорий таъмирлаш учун лойиҳа-смета хужжатлари. фаолият тур(-лар)и билан шугулланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 29-06-2019 йил

Лицензия рақами: АЛ-000046

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 305956641

Юридик шахснинг почта манзили: Самарқанд вилояти, Самарқанд шаҳар, Набиев кўчаси, 3-уй

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

ИНОЯТОВ МИРАББОС МИРКОМИЛОВИЧ

Мажур хужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон хужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон хужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрисидаги текшириш учун gero.gov.uz веб-сайтига ўтинг ва электрон хужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон хужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон хужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланган.

8000





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"BINO VA YO'L LOYIHA" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"BINO VA YO'L LOYIHA" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

09.01.2019

663380

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305956641

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, NABIYEV KO'CHASI , 3-UY,

Guvohnoma:

**Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI**

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

